



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No11**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
4-noyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni .....	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari .....	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati .....	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi .....	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv .....	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini .....	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar .....	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish .....	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi .....	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish .....	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati .....	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish .....	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish .....	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari .....	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati .....	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari .....	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes .....	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar .....	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli .....	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli .....	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi .....	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi .....	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari .....	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri .....	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning .....	125
<b>Quvandikova Xadicha</b>	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	129
<b>Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li</b>	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish .....	135
<b>Raxmonova Nazokat Umaraliyevna</b>	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli .....	140
<b>Rustamova Nodira Rustamovna</b>	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari .....	145
<b>Sitora Toshmatova</b>	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati .....	149
<b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi .....	153
<b>Toshpulatova Saida Kuzibaevna</b>	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish .....	158
<b>Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi</b>	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools .....	161
<b>Ulasheva Lobar</b>	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish .....	164
<b>Valiyeva Nargiza Athamboyevna</b>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
<b>Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi</b>	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar .....	173
<b>Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li</b>	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi .....	176
<b>Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich</b>	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
<b>Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna</b>	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri .....	185
<b>Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi</b>	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi .....	189
<b>Ahmedova Nargiza Muzaffarovna</b>	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам .....	193
<b>Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна</b>	
Структура и стратегии развития предметных компетенций .....	197
<b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b>	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития .....	203
<b>Раупова Шохида Ахроровна</b>	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы .....	207
<b>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</b>	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
<b>Сулейманова Нилуфар Камилловна</b>	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni .....	214
<b>Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi</b>	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari .....	218
<b>Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi</b>	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari .....	221
<b>Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna</b>	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari .....	224
<b>Abduxalilova Iroda Nozimxonovna</b>	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari .....	229
<a href="#">Abirova Umida Nazarovna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
<a href="#">Adhamova Diyora Sanjar qizi</a>	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy .....	239
<a href="#">Tangriyev Abdukarim Tovashevich</a>	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
<a href="#">Hafizov Shahriyor Shavkatovich</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari .....	248
<a href="#">Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi</a>	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
<a href="#">Kamolova Munajatxon Jaloldinovna</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari .....	259
<a href="#">Mamatova Aziza Bo'ribojevna</a>	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ....	262
<a href="#">Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich</a>	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
<a href="#">Maxkamova Dilafuz Aliyevna</a>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv .....	271
<a href="#">Normamatova Kamola Gulmamat qizi</a>	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
<a href="#">S. Sh. Azamatova</a>	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari .....	277
<a href="#">Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi</a>	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
<a href="#">Xolova Mohigul Shavkatovna</a>	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
<a href="#">Xudoyberganov Atham</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish .....	291
<a href="#">Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi</a>	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление .....	295
<a href="#">Кадирова Наргиза Азаматовна</a>	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка) .....	298
<a href="#">Мамырбаева Дина</a>	
Структура и стратегии развития предметных компетенций .....	304
<a href="#">Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</a>	



## O'QITUVCHI SHAXSIY KOMPETENSIYASINING MOHIYATI VA PEDAGOGIK FAOLIYATDAGI O'RNI

**Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi**

Profi University "Gumanitar va ta'lim faoliyati"

kafedrası o'qituvchisi, NDU. "Pedagogika tarixi.

Pedagogika ta'limotlar tarixi" ixtisosligi tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimida o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Raqamli transformatsiya, natijaviylikka yo'naltirilgan yondashuvlar va mehnat bozori talablari o'qituvchidan refleksiya, kommunikativlik, emotsional barqarorlik va kasbiy identitet kabi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Tadqiqotda pedagogik jamoa, mentorlik va CPD-treninglar shaxsiy kompetensiyani rivojlantirishning asosiy vositalari sifatida ko'rsatilib, bu jarayon institutsional strategik vazifa sifatida talqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy kompetensiya, pedagogik jamoa, refleksiya, CPD, kasbiy identitet, raqamli ta'lim.

**Abstract:** The article examines the issue of developing teachers' personal competence in the modern higher education system. Digital transformation, results-based approaches, and labor market demands require teachers to possess competencies such as reflection, communication, emotional stability, and professional identity. The study highlights that the pedagogical community, mentoring, and CPD trainings serve as key tools for developing personal competence, while this process is interpreted as an institutional strategic task.

**Key words:** personal competence, pedagogical community, reflection, CPD, professional identity, digital education.

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема развития личной компетентности преподавателя в современной системе высшего образования. Цифровая трансформация, ориентация на результат и требования рынка труда требуют от преподавателя таких компетенций, как рефлексия, коммуникативность, эмоциональная устойчивость и профессиональная идентичность. В исследовании показано, что педагогическое сообщество, наставничество и CPD-тренинги являются основными средствами развития личной компетентности, а данный процесс рассматривается как институциональная стратегическая задача.

**Ключевые слова:** личная компетентность, педагогическое сообщество, рефлексия, CPD, профессиональная идентичность, цифровое образование.

### KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar – xususan, ta'limning raqamlashtirilishi, natijaviylikka yo'naltirilgan yondashuvlarning kengayishi, shuningdek, global va milliy mehnat bozori talablarining keskin diversifikatsiyasi – oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilaridan faqat an'anaviy ilmiy-metodik tayyorgarlik emas, balki ko'p komponentli shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar majmuasini ham egallagan bo'lishini talab etmoqda. Bugungi kunda pedagogdan nafaqat o'qitish metodikasini bilishi, balki u o'z shaxsini doimiy rivojlantira oladigan, kasbiy identitetga ega, kommunikativ, reflektiv, emotsional jihatdan barqaror hamda raqamli savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mutaxassis sifatida shakllanishi zarur. Ushbu kompetensiyalar o'z-o'zidan shakllanmaydi – ular pedagogik jamoa doirasida olib boriladigan tizimli faoliyat, hamkorlik, mentorlik va o'zaro birgalikda o'rganish orqali rivojlanadi. Bu jarayonlar natijasida o'qituvchilar o'z kasbiga nisbatan ongli yondashuvni shakllantiradi, shaxsiy kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda o'zini baholash va takomillash-tirish mexanizmlarini amaliyotda qo'llay boshlaydi. Xususan, shaxsiy kompetensiyaning rivojlanishi – bu o'qituvchining pedagogik refleksiya, ijtimoiy moslashuv va kasbiy o'zligini anglash darajasiga bevosita ta'sir etuvchi omildir.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy oliy ta'lim tizimida pedagogning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv, avvalo, o'qituvchining individual rivojlanish traektoriyasini aniqlash, o'z faoliyatini tahlil qilish va o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi. O'qituvchining kasbiy refleksiyasi, o'z-o'zini tahlil qilish va baholash madaniyati uning professional o'sishining ajralmas qismi hisoblanadi.



Bundan tashqari, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli platformalardan samarali foydalanish, shuningdek, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish ham zamonaviy pedagogning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari rahbariyati va akademik jamoalar tomonidan o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish ham zarurdir. Bu muhitda mentorlik tizimi, doimiy malaka oshirish dasturlari, tajriba almashish seminar va treninglari, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish kabi mexanizmlar muhim o'rin tutadi. Natijada, pedagoglar o'z kasbiy faoliyatini nafaqat o'quv jarayoni bilan cheklamay, balki innovatsion g'oyalarni ilgari suruvchi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oluvchi va ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shuvchi subyekt sifatida shakllanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida ham 2020-yildan buyon amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun<sup>1</sup>ning (2020-yilgi tahriri) 28-moddasi asosida pedagoglarning kasbiy tayyorligi va malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish belgilab qo'yilgan<sup>[1]</sup>. Bu esa shaxsiy kompetensiyaning rivojlanishini nafaqat individual muammo, balki tizimli pedagogik masala sifatida ko'rib chiqishga asos yaratadi. Xalqaro darajadagi yondashuvlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, OECD (2021)<sup>[2]</sup> va UNESCO (2020)<sup>[3]</sup> hisobotlarida raqamli transformatsiya va pandemiyadan keyingi ta'limning moslashuvchanligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi hal qiluvchi omil sifatida qayd etilgan. Xususan, DigCompEdu modeli (2022) doirasida o'qituvchi shaxsiy refleksiya, hayotiy madaniyat, ijtimoiy hamkorlik va texnologik uyg'unlik kompetensiyalarini bir butun tizim sifatida rivojlantirishi lozimligi ta'kidlanadi<sup>[4]</sup>. Shu sababli, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish hozirgi kunda nafaqat psixologik-pedagogik muammo, balki institutsional strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Bu holat bevosita pedagogik jamoaning funksional faoliyati, resurslar bilan ta'minlanish darajasi, jamoaviy o'zaro ta'sir kuchi hamda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy va professional muhitdagi o'rni bilan chambarchas bog'liqdir.

Moreira, Veiga va Ferreira (2023) tomonidan olib borilgan sistematik adabiyot tahliliga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan 51 ta empirik tadqiqot asosida shunday xulosa chiqarilganki, talabalar o'qituvchida aynan shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar – masalan, empatiya, yetakchilik, muloqot, moslashuvchanlik kabi fazilatlarga katta e'tibor beradilar. Ayni paytda, ko'plab o'qituvchilar o'z ustuvorligini asosan fanga oid bilim va metodikaga qaratgani kuzatilgan. Bunday tafovut esa ta'lim jarayonida shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish ehtiyojini keskin oshiradi<sup>[5]</sup>. Bu holat pedagogik jamoa doirasida ko'p o'lchovli (multidimensional) yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Xususan, o'qituvchilarning shaxsiy kompetensiyalarini faqat individual rivojlanish vositasi sifatida emas, balki jamoaviy professional rivojlanish (JPR – professional learning communities) doirasida tashkil etish tavsiya etiladi. Zero, shaxsiy kompetensiya – bu o'qituvchining individual resursi emas, balki butun pedagogik tizimning ijtimoiy-madaniy faoliyati natijasida shakllanuvchi sifatli ko'rsatkichdir. Shu boisdan, shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish masalasi faqat psixologik emas, balki tizimli-pedagogik yondashuvni ham talab qiladi. Bu jarayonda individual refleksiya, hamkasblarning o'zaro baholashi, mentoring va jamoaviy treninglar asosiy vosita sifatida ko'riladi. Ana shunday tizimlilikka asoslangan yondashuvlar shaxsiy kompetensiyaning rivojlanishida real va doimiy natijalarga olib kelishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar – ta'limning raqamlashtirilishi, kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi, xalqaro standartlarga moslashuv zarurati – pedagog shaxsidan ko'p qirrali va kompleks kompetensiyalarni talab qilmoqda. Jumladan, shaxsiy kompetensiya – bu o'qituvchining nafaqat o'z faniga oid bilimlarini, balki shaxsiy refleksiya, kommunikativ madaniyat, ijtimoiy-emotsional barqarorlik va kasbiy identitetni bir butun holda shakllantira olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish, ayniqsa, pedagogik jamoa muhitida, ya'ni professional hamjamiyat doirasida samarali shakllanadi. Bu masala xalqaro miqyosda keng o'rganilayotgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida ham muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi (OAK) bazasida joylashgan quyidagi tadqiqotlar mazkur muammoning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi.

Toshkent Axborot Texnologiyalari universiteti olimlari Shakhnoza Pozilova va hamkasblari (2021) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, developmental trainings (moslashuvchan treninglar) oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining professional kompetensiyalarini (jumladan, shaxsiy refleksiya, kommunikativ va liderlik salohiyatlarini) sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu treninglar, ayniqsa, pedagogik jamoalarda joriy etilganida, o'qituvchilarning metakognitiv va sotsial kompetensiyalari rivojlanadi<sup>[6]</sup>. SamDU olimlari

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5013007?ONDATE2=06.02.2025&action=compare>

Mamayoqubova va Begmatova (2023) tomonidan olib borilgan “Pedagogik sharoitlar” haqidagi tadqiqotda keltirilgan fikrlar shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston ta’lim tizimida kompetensiyaga yo’naltirilgan yondashuvlar amaliyotga integratsiya qilinmoqda va bu pedagoglarning kognitiv, kommunikativ hamda reflektiv komponentlari rivojlanishida muhim omil hisoblanadi <sup>[7]</sup>. Polsha va WIUT (Toshkent) bilan hamkorlikda olib borilgan sifatli tadqiqotda O’zbekiston o’qituvchilarining CPD/treninglaridan foydalanish tajribasi, vaqtni boshqarishdagi muammolari va shaxsning rivojlanish jarayonidagi faol ishlash davri bo’yicha cheklavlari o’rganilgan. Ishtirokchilar o’zaro professional muhit va malaka oshirishdagi cheklavlarga haqida ijobiy fikr bildirganlar, CPDning shaxsiy kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyatini e’tirof etganlar <sup>[8]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekiston sharoitida pedagogik jamoa orqali o’qituvchi shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasiga oid real PhD va DSc dissertatsiyalar mavjudligi cheklangan bo’lsa-da, quyidagi ilmiy ishlanmalar mavzu bo’yicha asosli empirik tahlillarni taqdim etadi. Masalan, Kurbaniyazova Z.K. (2022) aralash ta’lim kontekstida pedagogik jamoa shakllanishi orqali ijtimoiy-pedagogik kompetensiyani rivojlantirishni o’rganib, o’qituvchilarning reflektiv va ijtimoiy moslashuvchanligini aniqlagan <sup>[9]</sup>. Shuningdek, Jalolov B. (2021) innovatsion jamoa mexanizmlari orqali shaxsiy va kreativ kompetensiyalarni mustahkamlash bo’yicha tizimli modellarni taklif etgan <sup>[10]</sup>. So’nggi yillarda O’zbekiston oliy ta’lim tizimida pedagoglar faoliyatini kompetensiyaviy asosda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Musayev O.Q. tomonidan himoya qilingan “Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish (oliy ta’lim muassasasi o’qituvchilari misolida)” mavzusidagi PhD dissertatsiyasida pedagogik faoliyatda zarur bo’lgan kompetensiyalarning ko’p komponentli modeli asoslangan holda ishlab chiqilgan. Tadqiqotda muallif pedagogik qobiliyatlarning quyidagi asosiy bloklarini ajratadi: metodik, kommunikativ, emotsional, analitik, innovatsion va reflektiv qobiliyatlar. Ushbu komponentlar o’qituvchi shaxsiy kompetensiyasining fundamental qismlarini tashkil etadi.

Ayniqsa, Musayevning tadqiqotida jamoaviy professional faoliyat (workshop, trenerlik, mutual feedback) orqali pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish samaradorligi eksperimental asosda isbotlangan. Bu yondashuv bizning tadqiqot doiramiz – pedagogik jamoa ta’sirida o’qituvchining shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish – bilan uzviy bog’liqdir. Chunki shaxsiy kompetensiyaning shakllanishi faqat individual emas, balki hamkorlik asosida tashkil etilgan ijtimoiy-madaniy muhitda amalga oshiriladi. Musayev tomonidan ishlab chiqilgan kompleks yondashuv bizning ilmiy ishimizda ko’zda tutilgan pedagogik jamoa orqali kasbiy identitet, refleksiya va o’z-o’zini anglash kabi ko’nikmalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, Shodiev N.M. o’zining ilmiy izlanishlarida (2020–2022) oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashuv jarayonida o’qituvchilarning kommunikativ va axborot savodxonligi kabi shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlagan. U, ayniqsa, raqamli savodxonlik va texnologik yondashuvlarni o’z ichiga olgan kompetensiyalarni ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim omil deb hisoblaydi. Bundan tashqari, Qosimova G.X. (2022) tomonidan “Oliy ta’limda innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish” mavzusida olib borilgan tadqiqotda TPACK modeli asosida o’qituvchilarning kontent, pedagogik va texnologik bilimlar integratsiyasi orqali shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, oliy ta’lim tizimida o’qituvchining shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishga pedagogik jamoaning institutsional va metodik ta’siri mavjud. Bunda CPD (Continuing Professional Development) metodlari, reflektiv faoliyat va hamkorlikda ta’lim (Collaborative Learning) kabi yondashuvlar o’qituvchining shaxsiy va kasbiy yuksalishiga zamin yaratadi <sup>[11]</sup>. Sanayeva Surayyo Bobonazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, xususan, talabalarning ommaviy tadbirlarda ishtirokini tashkil etish orqali ularning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorlik va kommunikativlik kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishi ko’rsatib o’tilgan. Bu tajriba shuni ko’rsatadiki, jamoaviy faoliyat shakllari – xususan, interaktiv metodlar va reflektiv ishtirok – nafaqat talabalar, balki o’qituvchilarning ham shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Zero, o’qituvchi o’z faoliyatida jamoaviy ishlarni tashkillashtirar ekan, o’zining ham kasbiy identitetini, ijtimoiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantiradi. Bu esa pedagogik jamoaning institutsional muhitda shaxsiy kompetensiyaga ta’sir qiluvchi omil sifatida o’rganilishi zarurligini ko’rsatadi <sup>[12]</sup>.

Mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, oliy ta’lim tizimi o’qituvchilari shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik jamoaning o’rni va ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Abdiraxmonova G.M. tomonidan olib borilgan tadqiqotda o’qituvchilarning shaxsiy kompetensiyasini pedagogik jamoa ta’sirida rivojlantirish mexanizmlari eksperimental asosda o’rganilgan bo’lib, natijalarga ko’ra, pedagogik muhitda faoliyat olib boruvchi o’qituvchilar individual rivojlanishga qaraganda tezroq va samaraliroq professional o’sishga erishganliklari aniqlangan. Xususan, eksperimental guruh o’qituvchilarining 85 foizi jamoaviy muloqot va hamkorlik sharoitida o’zlarining kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini yanada muvaffaqiyatli rivojlantirishganini bildirgan bo’lsa, nazorat guruhi o’qituvchilari orasida bu ko’rsatkich 56 foizni tashkil qilgan. Bundan tashqari, jamoaviy hamkorlikdagi faoliyat o’qituvchilarning reflektiv tahlilga bo’lgan moyilligini oshirib, ularda yuqori motivatsiya shakllanishiga xizmat qilgan (Abdiraxmonova, 2025). Muallif o’z tadqiqotida shaxsiy kompetensiyani quyidagi



tarkibiy komponentlar orqali ifodalagan: kommunikativlik, moslashuvchanlik, liderlik, ijtimoiy-emotsional barqarorlik, axloqiy-estetik tamoyillar, kasbiy intizom, o'zini anglash va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj. Ushbu yondashuv shaxsiy kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik jamoaning rolini kuchaytirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlarni belgilaydi. Demak, pedagogik jamoa ta'sirida o'qituvchi shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat individual rivojlanish mezonlariga asoslanadi, balki tizimli reflektiv metodlar, muntazam kasbiy muloqot va o'zaro pedagogik yordam vositasida samarali shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim sifatining oshishiga hamda innovatsion ta'lim muhitining shakllanishiga xizmat qiladi <sup>[13]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, O'zbekiston sharoitida olib borilgan mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilarning shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni faqatgina individual rivojlanish bilan chegranalanmaydi. Aksincha, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogik jamoa doirasida olib boriladigan kasbiy hamkorlik, o'zaro o'rganish, CPD (Continuing Professional Development) treninglari, mentorlik va reflektiv faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish, xalqaro standartlarga moslashish, ta'lim natijalariga yo'naltirilgan yondashuvlarning kuchayishi o'qituvchidan faqat fanga oid bilimlar emas, balki kommunikativlik, reflektivlik, emotsional barqarorlik va kasbiy identitet kabi ko'p qirrali shaxsiy kompetensiyalarni talab qilmoqda. Aynan pedagogik jamoa muhitida ushbu kompetensiyalar barqaror shakllanadi va rivojlanadi. Shaxsiy kompetensiya – bu o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuvi, o'z ustida ishlashi, hamkasblar bilan samarali muloqot qilishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va kasbiy o'zligini anglash jarayonlarining bir butunligini ifodalaydi. Bu kompetensiyalar individual rivojlanish orqali emas, balki professional hamjamiyat – ya'ni o'quv jamoasi orqali tashkil etilgandagina samarali bo'ladi.

Shu bois, O'zbekiston ta'lim tizimida shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish masalasi individual masala sifatida emas, balki tizimli pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Mahalliy olimlar – Musayev O.Q. (2023), Qosimova G.X. (2022), Shodiev N.M. (2021), Kurbaniyazova Z.K. (2022), Jalolov B. (2021), Sanayeva S.B. (2022), Abdiraxmonova G.M. (2025) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bu fikrni isbotlab bermoqda. Tadqiqotlarda ta'limda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik jamoaning roli, CPD treninglari, reflektiv yondashuvlar va mentorlikning ahamiyati chuqur asoslab berilgan. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish orqali emas, balki pedagogik jamoaning faol ta'siri ostida shakllanadigan murakkab tizimdir. Shuning uchun ham bu yo'nalishda jamoaviy hamkorlik, refleksiya, CPD metodlari va institutsional qo'llab-quvvatlash asosida kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). Qabul qilingan sana: 23-09-2020 y. <https://lex.uz/ru/docs/-5013007?ONDATE2=06.02.2025&action=compare>
2. OECD. (2021). Teachers and Leaders in the Digital Age: Competence and Development. Retrieved from: <https://www.oecd.org/education/>
3. UNESCO. (2020). Education in a Post-COVID World: Nine Ideas for Public Action. Retrieved from: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373717>
4. European Commission. (2022). DigCompEdu: The European Framework for the Digital Competence of Educators. Retrieved from: <https://joint-research-centre.ec.europa.eu>
5. Moreira, M.A., Veiga, A., & Ferreira, R. (2023). Teaching Competences in Higher Education: A Literature Review. *Education Sciences*, 13(3), 309. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1382347.pdf>
6. Pozilova, S., Sharipova, S., Dottoyev, S., & Isxakova, M. (2021). The Role and Importance of Developmental Trainings in Improving Professional Competence of Teachers in Higher Education Institutions in Uzbekistan. *Psychology and Education*, 58(2), 4953–4962.
7. Mamayobova, S., & Begmatova, D. (2023). Pedagogical Conditions of Developing Professional Competence of Teachers of Higher Educational Institutions in Uzbekistan. *BIO Web of Conferences*, 65, 10025. Retrieved from: <https://www.bio-conferences.org>
8. Mamadinova, N., & Khadjikhanova, S. (2023). Navigating Continual Progress: Insights into Teacher Professional Development in Uzbekistan. *Kwartalnik Pedagogiczny*, 4(270). Retrieved from: <https://www.researchgate.net>
9. Kurbaniyazova, Z.K. (2022). Aralash ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish. DSc dissertatsiyasi, Nukus davlat pedagogika instituti. Retrieved from: <https://lib.bimm.uz>
10. Jalolov, B.B. (2021). Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish mexanizmlari. PhD dissertatsiyasi, Toshkent pedagogika universiteti, Chirchiq. Retrieved from: <https://api.ziyounet.uz> / <https://lib.bimm.uz> / Farg'ona davlat universiteti ma'lumotlar bazasi.
11. Musayev O.Q. (2022). Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish (oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari misolida). PhD dissertatsiyasi. Toshkent: TDPU. Manba: <https://oak.uz> (interaktiv avtoreferatlar platformasida ro'yxatga olingan).
12. Sanayeva, S.B. (2022). Fleshmoblar – talabalarni ommaviy tadbirlarda ishtirokini ta'minlash usuli sifatida. *Pedagogik Mahorat jurnali*, 2022(3–4), 36–54. BuxDU.
13. Abdiraxmonova, G.M. (2025). Razvitie lichnostnoy kompetensii prepodavateley vysshikh uchebnykh zavedeniy kak pedagogicheskaya problema. *Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar*, 2025-yil, 4-son, C seriya, 285–292-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.